



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

¹Madatov Ilhom Yusup o'g'li, ²Qung'irova Gulmira Romazon qizi

¹ Samarqand davlat universitetining, Kattaqo'rg'on filialio'qituvchisi

² Samarqand davlat universitetining, Kattaqo'rg'on filiali 1-bosqich talabasi

TA'LIM JARAYONIDA "ILK QADAM" DAVLAT DASTURINING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqola "Ilk qadam" davlat dasturi va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishidagi ahamiyati haqida. "Ilk qadam" deb nomlangan o'quv dasturining asosiy tamoyili – ta'lim jarayoniga endigina qo'shilayotgan yosh bolalarning ilk qadamlari hisoblanadi. Umuman olganda bu dastur davlat talablariga javob beradigan ta'limni maktab yoshigacha bo'lgan bolalarga berish uchun xizmat qiladi va maktabga chiqishlari uchun motivatsiya ulashadi. O'quv dasturining diqqat markazida bola va uning manfaatlari turadi.

Kalit so'zlar: nizom, davlat talablari, davlat o'quv dasturi, madaniyat va ma'rifat, milliylik, mutaxassis, davlat va nodavlat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda, 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligi to'g'risidagi nizomni hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida"gi qarori maktabgacha ta'limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash,



maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta'limga bola qamrovini oshirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, atrof muhit bilan yaqindan tanishtirish va sohaga ilg'or xorij tajribalarini olib kirgan holda tadbiq qilish imkonini beradi.

Xorij tajribalariga milliylikni singdirgan holda san'atga, adabiyotga, tabiatdagi hodisalarga, matematikaga bo'lgan qiziqishini pedagoglarimiz bolalar ruhiyatiga singdiradi. Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturi asosida rejalashtirib, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlantiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu dastur ta'lim-tarbiya jarayonlariga tadbiq etilib, to'laqonli ishlab ketilsa yaxshiroq samara beradi.

"Ilk qadam" davlat dasturi maktabgacha ta'limning sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, bolalarning yaxshiroq, ya'ni, mukammalroq ta'lim olishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bu dastur o'z ichiga pedagogik maqsadlarni olib, bolalarni erta rivojlantiradi, o'zlarida shakllanayotgan noyob qobiliyatini yuzaga chiqaradi, iqtidorini shakllantiradi, o'zlariga bo'lgan yuksak ishonchini oshiradi va ta'lim olishlari uchun tayyorlanib boradi. O'sib kelayotgan yosh avlodni yaxshi sifatdagi ta'lim bilan qamrab olishni maqsad qilgan O'zbekiston Respublikasi hukumati besh yillik Davlat dasturini ishlab chiqib yo'l xaritasini tuzdi va maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etdi.

"Ilk qadam" davlat dasturi bolar uchun rag'batlantiruvchi o'qitish muhitini yaratib, ta'lim jarayonida ota-onalarni ko'proq jalb qilishga ko'maklashadi. Ota-ona jalb qilinib o'qitilgan bolalarda berilayotgan ta'limni o'zlashtirish nisbatan osonroq kechadi. Bu vaziyat bilan ko'proq natijaga erishish mumkinligini barchamiz yaxshi bilamiz. Ota-ona va tarbiyachilar birgalikda bolalar tarbiyasiga jalb qilinsa ulardagi iste'dodni tezroq anglab yetamiz va ta'lim jarayonida ko'proq nimalarga e'tibor berish kerakligini belgilab olamiz.

Bu jarayonda bolalarning hayotga intilishini oshiramiz, odamlarga bo'lgan muomilasini to'g'ri yo'lga qo'yamiz va qaysi kasbga salohiyati borligini birgalikda yuzaga chiqarishimiz mumkinligini anglab yetgan holda ularga ta'lim berishni qanday va qaysi yo'ldan boshlashimiz kerakligini tushunib yetamiz.

Bu dastur bolalarning rivojlanishini eng muhim jihatlaridan biri bo'lgan diqqatni jamlashni ta'minlashga ham xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Diqqatini jamlagan bola keraksiz va ortiqcha narsalarga chalg'imasdan tarbiyachini e'tibor bilan kuzatadi va o'ziga kerakli ma'lumotni aniq, to'g'ri qabul qilishga ulguradi. Qolaversa, atrofidagi tengqurlarini qilayotgan harakatlaridan ma'qul va nomaqbul ishlarini ajrata boshlaydi. Qaysi qilayotgan ishlari yaxshi-yu, qaysi biri yomon, nima to'g'ri-yu, nima noto'g'ri ekanini anglab yetgan holda o'zlariga xulosa chiqara boshlashadi.

Yosh avlodning rivojlanishida qo'yiladigan davlat talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan huquqiy hujjat bo'lgan "Ilk qadam" davlat dasturida maktabgacha ta'lim muassasalarining vazifalari va berayotgan tarbiyaviy ishlarining mukammal g'oyasi aks ettirilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu dasturni qo'llash uchun majburiy bo'lgan ta'lim muassasalari quyidagilardan iborat:

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

maktabgacha ta'lim sohasida xizmatlarni ko'rsatadigan nodavlat ta'lim tashkilotlari;

maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlariga ega bo'lgan "Mehribonlik" bolalar uylari;

maktabgacha va boshlang'ich ta'limni tartibga soluvchi boshqaruv organlari.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi 5ta markazda faoliyat yuritadi. Ular quyidagilar:

1. Til va nutq markazi. (nutq o‘stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog‘liq mashg‘ulotlar)
2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (qurish-yasash va matematika mashg‘ulotlari)
3. San‘at markazi. (rasm, applikasiya, loy qurish, yasash mashg‘ulotlari)
4. Syujetli rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markazi. (guruh yoshiga mos bo‘lgan syujetli qoidali o‘yinlar)
5. Ilm-fan va tabiat markazi. (tabiat, atrofdagi olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlari)

Bu markazlardagi faoliyatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, til va nutq markazida asosan bolalarni do‘stlasha olishiga va ular chiroyli madaniyat bilan suhbatlashishiga qolaversa, o‘z fikrlarini ochiq oydin ayta olishi uchun zamin yaratib beriladi. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, bolalar o‘zidan kattalar va kichiklar bilan erkin muloqot qilishni o‘rganadi. O‘zlariga mos bo‘lgan mavzularda kichik-kichik hikoyalar tuzishga ham urinib ko‘rishadi.

Matematika markazida bolalarning matematik tasavvurlarini kengaytirish uchun ular bilan bo‘layotgan muloqotda qo‘shish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi jummalarni ko‘proq ishlatish lozim. Bunday vaziyatda “Ilk qadam” davlat dasturi ta‘lim-tarbiya jarayonida tarbiyachilarga katta yordam beradi.

Shuningdek, san‘at markazida bolalarning kayfiyati ko‘tariladi va ularning ijodiy qobiliyatlari yuzaga chiqa boshlaydi. Bu vaziyatda ularning ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlab, o‘zlariga nisbatan ishonch orttirish lozim. Iqtidorli bolalar ko‘pincha oila davrasida e‘tiborsiz qolib ketadi. Bu markazda esa yashirin iste‘dodlari ham rivojlanib, bolalarning nutqi shakllanadi.

Ayniqsa, syujetli rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markazda bolalarning iqtidori to‘liqroq ayon bo‘ladi. Eng muhimi bu markazni bolalarning “Men”ini shakllantiruvchi markaz ham deb atashimiz mumkin. Bu jarayonda ahloqiy tarbiya olish osonlashadi. Qolaversa, foydalanilayotgan jihozlar orqali bolalar kasblar bilan yaqindan tanishtiriladi va mehr uyg‘otiladi. Mehr uyg‘otish bilan birga o‘zlari sevgan kasblariga nisbatan tushunchalarga ega bo‘lishadi.

Ilm-fan va tabiat markazida asosan sinov maydonchalarida o‘tkazilayotgan tajribalar bolalarni ixtirolar qilishga undagan holda ko‘p narsalarga qiziqishini ham uyg‘otishga qodir bo‘lish bilan birgalikda atrof-muhitni, tabiatni va unda bo‘layotgan hodisalarni o‘rganib borishga imkoniyat yaratib beradi. Agarda bu markazning faoliyatini tarbiyachi to‘g‘ri tashkil qilolsa tabiat haqidagi bilimlarning yarmidan ko‘pini bera olishga erishadi. Shu bilan birga tarbiyachi pedagoglarning qalbida katta qiziqish uyg‘onadi va bundan o‘zlari hamrohlanadi, berayotgan, o‘rgatayotgan ta‘limidan qoniqadi, bajarayotgan ishlaridan g‘ururlanadi.

Biz keltirib o‘tgan markazlar faoliyati bolalarni maktabga tayyorlash bilan birgalikda ta‘lim olishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirib boradi. 6-7 yoshdagi bolaning ongini mustahkamlash, bilim olishga tayyorlash, san‘atga, adabiyotga mehr uyg‘otish, kasbga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish maqsadida tuzilgan rivojlanish xaritasi ta‘lim jarayonining samaradorligini aniqlab beradi.



Bolalar bilan qisqa muddatli guruhlarda bolalarning erkin va mustaqil faoliyati, o‘yin faoliyati, tasviriy faoliyati, o‘rganuvchi tadqiqiy faoliyati, atrofdagi olamni anglash, tabiat bilan tanishuv, matematika, musiqa, jismoniy madaniyat, nutqni rivojlantirish, savodxonlikka o‘rgatish kabi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim vazirligining asosiy maqsadi – barcha bolalarni teng asosli va sifatli ta‘lim tizimiga qamrab olishdir. Umid qilamizki, maktabgacha ta‘lim vazirligining bu asosiy maqsadi yaqin kunlarda o‘z ifodasini topib, qishloqlardagi bolajonlarimiz ham o‘z bog‘chalariga, tarbiyachilariga ega bo‘lib, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi bo‘yicha kichik yoshdagi bolalar ham sifatli ta‘limga ega bo‘lishadi.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidagi talablarni amalga oshirish uchun bolani har tomonlama rivojlantirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun tasavvuridagi predmetlarni qo‘li bilan ko‘rsatishni, arqonlardan turli tugunlarni tugib, so‘ngra yechishni, o‘yin faoliyati mobaynida mayda o‘yinchoqlar bilan o‘ynashni, belgilangan chiziqlar bo‘ylab qog‘ozni yirtib olishni, mayda qisimli mozaika va pazllarni yig‘ishni mukammal darajada o‘rgatish lozim.

Umuman olganda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari boladagi, jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari bilan shug‘ullanadi. Maktab muhitiga tayyorlovchi asosiy mezonlar bu bilim olish, anglab yetish, ijodiy rivojlanish, muomala madaniyatini o‘rganish shu bilan birga boladagi iste‘dodni yuzaga chiqarib uni rivojlantirish hisoblanadi.

Endigina atrofga hayrat ko‘zi bilan boqayotgan jajji bolajonlarning ko‘ngli go‘yoki bir oppoq varaq. Ularning qalbi esa biz kattalar, ota-onalar, tarbiyachi pedagoglar, o‘qituvchilar tomonidan umid, orzu, mehr-muhabbat, ezgulik, sadoqat va ma‘rifat so‘zlarini yozadigan joy hisoblanadi.

Bu joyni qanday ranga bo‘yash va fikr doirasini toraytirish yoki kengaytirish, hayotni qaysi taraflariga e‘tiborli bo‘lishi uchun dunyoqarashini shakllantirish esa o‘zimizga bog‘liq.

“Ilk qadam” davlat dasturi asosida maktabgacha ta‘lim tizimida tarbiyani yo‘lga qo‘ygan holda birinchi o‘rinda bolalarning qalbida orzu-umid uyg‘otishimiz lozim. Chunki, orzu-umid bo‘lmagan qalbda bo‘shliq vujudga keladi.

Birinchi o‘rinda bolalarning fikri bilan o‘rtoqlashish munosib voris qilib shakllantirishimizda bizga katta yordam beradi, shuningdek, ongi uyg‘oq qilib tarbiyalashimiz uchun ularga erkinlik, mas‘uliyat, to‘g‘ri yo‘l va ezgu maqsadlar kerak bo‘ladi. Ayniqsa, ta‘lim-tarbiyaning ham o‘z rivojlanish qonun-qoidalari borligini aslo unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yildagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.
3. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I., Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik) –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti 2010-yil. 464-bet.
4. Djuraev R.X., Tolipov O‘.Q, Safarova R.F., To‘raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug‘ati. –T.: “Fan” nashriyoti, 2008-yil